



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 1-oktabr holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 9 522 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi






Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil 1-oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1-oktabr holatiga, birlik
Sirdaryo viloyati	9 976	9 522
Guliston shahri	2 234	2 297
Shirin shahri	205	226
Yangiyer shahri	764	755
Oqoltin tumani	726	639
Boyovut tumani	866	819
Sayxunobod tumani	749	611
Guliston tumani	798	686
Sardoba tumani	896	900
Mirzaobod tumani	889	835
Sirdaryo tumani	1250	1206
Xovos tumani	599	548


**Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 1 643 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 605 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 371 ta, sanoatda 180 ta hamda boshqa xizmatlarda 132 ta tashkil etilgan.


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Sirdaryo viloyati	1 522	1 643
Guliston shahri	303	410
Shirin shahri	20	38
Yangiyer shahri	92	130
Oqoltin tumani	159	97
Boyovut tumani	131	136
Sayxunobod tumani	103	91
Guliston tumani	141	110
Sardoba tumani	153	136
Mirzaobod tumani	169	170
Sirdaryo tumani	153	229
Xovos tumani	98	96

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,2 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 4,2 % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 049,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 54,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 150,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0 %), Boyovut (96,0 %), Xovos (87,0 %), Yangiyer shahar (82,0 %) va Mirzaobod (86,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 658,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 82,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 125,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (100,0 %), Guliston shahar (94,4 %) va Sayxunobod (93,9 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 136,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 71,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 155,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahar (93,8 %), Yangiyer shahar (91,4 %), Sayxunobod (85,3 %) va Oqoltin (78,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati 2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 12 027,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahar (100,0 %), Shirin shahar (100,0 %), Sayhunobod (100,0 %), Xovos (99,7 %) va Boyovut (99,2 % tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 4 555,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 93,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Shirin shahri (100,0 %) Oqoltin (99,0 %), Xovos (99,1 %), Guliston (97,9 %) va Sayxunobod (97,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 6 477,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 65,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 143,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 71,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 312,1 mln AQSH dollarini yoki jami importning 71,5 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Guliston – 100,0 %, Oqoltin – 100,0 %, Boyovut – 99,9 %, Yangiyer shahar – 99,7 %, Xovos – 87,8 %, Sirdaryo tumanlarida – 74,9 % ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar)
import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 88,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,7 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 33,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida esa 38,6 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,9 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 57,2 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 55,0 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 9,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 6,4 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 54,7 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 54,5 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 41,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 44,1 % yoki 3,0 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida 4,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 1,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 34,9 % ni, savdoda – 41,7,% ni va xizmatlar sohasida – 41,7,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 68,2 % ni, sanoatda – 58,1 % ni va savdoda – 54,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 16,6 % ni, sanoatda – 7,0 % ni va qurilishda – 13,5 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:
K. Yusupov
67 236-70-00 (2030)

Manzil:
Sirdaryo viloyati, Guliston shahar,
Birlashgan ko'chasi, 62-uy